

ERKIN A'ZAM KINOQISSALARIDA PERSONAJ XARAKTERINI OCHISHNING
AYRIM USULLARI

(“Suv yoqalab” kinoqissasi asosida)

Boburjon Boymatov

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Telefon: +998919073969

e-mail: boburjon.boymatov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10988313>

Annotatsiya. Maqolada Erkin A'zamning xarakter yaratish hamda ruhiy holatlarni aks ettirish mahorati “Suv yoqalab” kinoqissasi asosida misollar bilan ochib berilgan. Bunda taniqli olimlar, yosh tadqiqotchilarning fikrlari o'rganilgan holda muallifning shaxsiy xulosalari berilgan.

Kalit so'zlar: dialog, janr, kinoqissa, obraz, personaj, portret, ramz, varvarizm, xarakter.

Bugungi kun adabiyotimizda yaratgan asarlari va ulardagi turfa xil xarakterdagi personajlari bilan adabiyot ixlosmandlari qalbidan joy olib kelayotgan yozuvchi Erkin A'zam hisoblanadi. “Aksariyat qalamkashlar o'nlab qissa, roman yozadi-yu, hayot hodisalarini tasvirlash, inson obrazini gavdalantirishda o'z uslubini topolmasdan adabiyot “sahnasidan” tushib ketadi. Erkin A'zamov esa dastlabki qissasi – “Otoyining tug'ilgan yili” dayoq o'z uslubini namoyon etdi. Uning qahramonlari o'ziga xos qiyofasi, gapirish tarzi bilan alohida ajralib turadi. Bu shartaki qahramonlar muloyim, silliq gapiradigan personajlarga ko'nikkan o'quvchilarga dastlab biroz erish tuyuladi”¹ Yozuvchi asarlaridagi qahramonlar bilan yaqindan tanishib borganingiz sari ular sizga tanish va sinashta tuyulaveradi; go'yoki ko'cha-ko'yda, mahallada, ishxonada, yon atrofingizda har doim ko'rib, bilib, tanib yurgandek bo'laverasiz. Ba'zida esa bu personajlarning o'zingizga o'xshash ekanligini, siz bilan qandaydir umumiy jihatlari bordek tuyulishini sezib qolasiz. Beixtiyor kishida “nega bunday bo'ladi? nega adib qahramonlari tezda inson ko'nglidan joy oladi?” degan savol tug'ilishi tabiiy. Chunki bir qarashda to'pori qishloq odami bo'lib ko'ringan qahramonlar ko'ngil kishisi ekanligi, faqatgina ko'ngliga itoat qilishi, yuragida og'ir dard bilan yurganliklarini yozuvchi mahorat bilan tasvirlaydi. Inson tabiatini, qalbini mukammal tarzda ochib bera oladi. Shuning uchun ham Erkin A'zamni “Xarakter musavviri”² deb ataydilar.

¹ Ulug'ov A. Jannat o'zi qaydadir// Erkin A'zam badiiy olami. -T.: Turon zamin ziyo, 2014.

² Yo'ldoshev N. Xarakter musavviri// Erkin A'zam badiiy olami. -T.: Turon zamin ziyo, 2014.

Xo'sh, shunday so'z qo'llashda mohir, xarakter yaratishda usta ijodkor asarlarida personajlar xarakterini ochib berishning qanday usullaridan foydalanadi? Adib asarlarida, jumladan, kinoqissalarida inson ruhiyatini ochib berishning qaysi jihatlari ko'zga tashlanadi? Bu jarayonda adib mahorati qaysi jihatlari bilan e'tirofga sazovor? Quyida Erkin A'zamning "Suv yoqalab" kinoqissasi yuzasidan mana shu savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Shu o'rinda professor Dilmurod Quronov badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish, uni o'quvchi ko'z oldida konkret jonlantirish, qahramon bilan mufassal tanishtirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjudligini ta'kidlab o'tadi. Bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlar kirishini ta'kidlaydi.

Personajlar xarakterini ochishda Erkin A'zam qo'llagan ilk usul bu qahramonlarning portretini chizish hisoblanadi. Ma'lumki, portret personaj xarakteriga ishora qiladi. Shu bilan birgalikda kitobxonda personajning qaysi millatga mansubligi va ijtimoiy kelib chiqishi haqida ham dastlabki tasavvurlarni uyg'otadi.

"Suv yoqalab" kinoqissasida bosh qahramon Bolta Mardon portretini chizishda portretning dinamik turidan foydalanadi. Asar boshida qahramonni bir ikki so'zdan iborat jo'ngina ta'riflanganini ko'ramiz: "*O'ng qanotda saf tortgan oldi ochiq oshxona, ombor, somonxona-yu sayisxonalar tarafdin tosh terilgan yo'lka bo'ylab oltmish besh yoshlardagi devqomat, vajohatli bir odam kelmoqda.*" Yozuvchi Bolta Mardon tashqi ko'rinishiga xos shugina belgilardan foydalanadi. Gap shundaki, Erkin A'zam aksariyat personajlarining tashqi ko'rinishlaridan ham ko'ra ularning ruhiy dunyosini ochib berishga xarakter qiladi, shuni muhim deb biladi. Bolta Mardonga xos bo'lgan ko'plab xususiyatlar suv yoqalash jarayonida ma'lum izchillikda berib boriladi.

Ayniqsa, Omonboyning ta'ziyasi ustidan chiqqanlarida marhumning farzandi bilan bo'lgan suhbatda Bolta Mardonning qanchalik kamtarin inson ekanligi ko'zga tashlanadi:

"Marhumning besabr, befarosatrog' o'g'li gapni ilib ketadi:

— To'g'ri aytasiz, bobo. Otam rahmatlini ham bir o'limdan opqolganlar. Ichaklari buralib qolganda mana shu kishi mashinalarida Termizga oborganlar. Shunday, a, rais bobo?

— Esda yo'q ekan, jiyan, — deb qo'yadi Bolta Mardon.

— Eslab ko'ring, eslaysiz. O'zim billa borganman-ku!

— Balki. Ish bilanmi, majlis-pajlisgami ketayotgan bo'lsam kerak-da.

– *Bu yerning do‘xtiri “o‘ladi” degan odam, mana qarang, yana o‘n besh yil yashadilar. O‘n besh yil-a!”*³

Bolta Mardonning o‘g‘li Qodirni gunoh ish ustida tutib olganda esa, qahramonimizning qanchalik pokdomon va oriyatli inson ekanligi ko‘zga tashlansa, qizi Zulfiya bilan birga yig‘laganlarida esa eski raisning haybati, vajohati qaramasdan, ko‘ngli bo‘sh, mehribon inson sifatidagi tasviri ko‘z oldimizda gavdalanadi.

“Suv yoqalab”da O‘rin Jaga portreti alohida ajralib turadigan darajada keng. Ammo muallif birdaniga Jaga tasviriga o‘tib qo‘ya qolmaydi, kitobxonni Jaga bilan “uchrashuv”ga tayyorlab boradi. Bu o‘rinda adib avval uni o‘zga qahramonlar tilidan tasvirlash usulini ma‘qul ko‘radi. Dastlab u haqida “sersoya gujum tagidagi bir chorpoya”da o‘tirgan “hangamatalablar” orasidagi Jumaqul va o‘sha yerdagi bir “yoshroq kishi” tilidan ta‘riflaydi:

“ – *Yo‘l bo‘lsin, rais bobo? Bunday, lashkar tortib...*

– *Bog‘-rog‘ quvrab qoldi, Jumaqul, – deydi otliq behafsala. – Shunga bir korizga – quloqboshi tomonga o‘tib kelay.*

– *Bu yil suv masalasi chatoq, – deydi Jumaqul – korjomaga o‘xshash yakrang libos kiygan o‘rtayashar kishi. – Mening ham chorbog‘im qaqrab yotibdi.*

– *Yuring bo‘lmasa, billa-billa suv yoqalaymiz.*

– *Quloqboshida O‘rin Jaga o‘tiribdi deb eshitaman. U battoldan suv so‘rab bo‘lmas.*

Raisning tog‘asi!

– *Suvni pullab yotganmish zang‘ar! – deya luqma soladi yoshroq bir kishi. – Hech balodan tap tortmaydi u. Uch marta qamalib chiqqan rasvo bir qirriq-da!*

– *Eski oshnomiz ekan-da, – deydi Bolta Mardon beozor kulib otining biqiniga niqtarkan. – Bermay ko‘rsin-chi!*

– *Hay, siz otdasiz-ku, Bolta aka, yuzingizdan o‘tolmas, – deb qo‘yadi Jumaqul.*

Haligi bilag‘on gap qo‘shmay turolmaydi:

– *Jaga otliq tugul, otasi tirilib kelsayam tanimaydi!”*⁴

Bu suhbat parchasi orqali O‘rin Jaga haqida kitobxon ilk daf‘a “eshitadi”. Ko‘pchilik undan qo‘rqishi, uning hech balodan qaytmasligi, uch marta qamalganligi, suvni ham pullashi, joyi kelsa otasini ham tanimaydigan darajadagi kishi ekanligini adib aynan, o‘zga personajlar tilidan ma‘lum qilishni ma‘qul deb topadi. Shu usulda o‘quvchida O‘rin Jaga haqidagi ilk tasavvur shakllantiriladi. E‘tiborga molik bir jihati borki, ushbu parchadan Jagadan tashqari yana uch

³ A‘zam E. Jannat o‘zi qaydadir. -T.:Sharq, 2007. 76-b.

⁴ A‘zam E. Jannat o‘zi qaydadir. -T.: Sharq, 2007.

personaj – Bolta Mardon, Jumaqul va yana bir kishi haqida ham tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Bunday jarayon quyidagicha amalga oshadi: Dialog orasida muallif Jumaqulga tavsif berib ketadi: “korjomaga o‘xshash yakrang libos kiygan o‘rtayashar kishi”. Jumaqulning ko‘rinishi haqida adibning bizga bildirishni xohlagan narsasi shugina so‘zlar tizmasi bilan cheklanadi. Diqqat bilan matnga e‘tibor qilinsa, Jumaqul haqida shu yerda yana bir narsani bilish mumkin. Bolta Mardon birgalikda suv yoqalashga taklif qilishiga qaramasdan, u birga bormaydi, raisga bunday javob qiladi: “Quloqboshida O‘rin Jaga o‘tiribdi deb eshitaman. U battoldan suv so‘rab bo‘lmas. Raisning tog‘asi!” Bundan anglashiladigan ma‘no shuki, Jumaqul hayotda ko‘pda uchraydigan, “och qornim – tinch qulog‘im” qabilida yashaydigan, qo‘rqoq kimsa.

Ikkinchi tasvirlanish markazida har gapga suqilaveradigan bir kishi turadi. Avval uning gapiga diqqat qilsak: “suvni pullab yotganmish zang‘ar.” So‘zlar ma‘nosidan bu gap shunchaki mish-mish ekanligi anglashiladi; u biror marta Jagani suv pullaganini ko‘rmagan-u bu haqda og‘iz to‘ldirib gapirib o‘tiribdi. Erkin A‘zam bunday xarakterga ega kishilarga ism berishni ham ravo ko‘rmaydi, uni avval “bir yoshroq kishi” deb, keyingi o‘rinda gap qo‘shmay turolmagani uchun kesatib “bilag‘on” deb ataydi.

Ko‘rib o‘tganimizdek kichik bir parchada bir necha kishining xarakter xususiyatlari namoyon bo‘lmoqda. Bu ham yozuvchining kam gapirib, qisqa o‘rinda ko‘p ma‘no yetkaza olish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xuddi mana shunday bir personajni so‘zlatib qo‘yib, uning nutqi orqali boshqa bir personajga xos xususiyatlarni namoyon qilish usulidan Erkin A‘zam asarlarida munosib foydalanadi.

O‘rin Jaga haqidagi ta‘riflarni “eshitganimizdan” so‘ng, nihoyat, Jaga bilan yuzma-yuz kelamiz. “Qishloqda uni ko‘rgan katta-kichik zir titramasa ham, bir seskanishi bor. Vajohati chatoq-da. Ko‘zlar chaqchaygan, o‘qdek teshaman deb turadi. Basharani har xil chandig‘-u tirtiq “bezagan”. Oyoq-qo‘l va badanning-ku sog‘ joyi yo‘q – vatanga muhabbatdan tortib behisob ishq jafolarigacha turli yo‘sinda ifodasini topgan. Yurganda bo‘ynini ichkariga tortib, xuddi hoziroq mushtlashuvga kirishib ketadigan kabi, mushtlari ko‘krakda shay, xezlanib, atrofga bezovta alanglab yuradi. Qisqasi, o‘tgan asrning elliginchi-oltmishinchi yillaridagi xudo urgan bezorini ko‘rmdim demang!”⁵

“Badiiy adabiyotda muayyan tasvir maqsadi bilan o‘zga tilga oid so‘z va iboralar qo‘llanilishi kuzatiladi. Tilning lug‘at tarkibiga kiritilmagan, faqatgina, og‘zaki nutqda mavjud bo‘lgan bunday chet so‘zlaridan badiiy nutqda voqealar bo‘lib o‘tayotgan o‘ringa ishora qilish, nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning milliy mansubligi, qahramonlar xarakteri haqida

⁵ A‘zam E. Jannat o‘zi qaydadir. -T.: Sharq, 2009. 63-b.

ma'lumot berish maqsadida foydalaniladi."⁶Erkin A'zam asarlarida shu kabi so'zlardan foydalanadigan personajlar ko'plab topiladi.

Bunday so'zlar varvarizmlar deb ataladi. Adabiyotshunoslik lug'atida varvarizmga quyidagicha ta'rif berilgan: "*o'zga tildan o'zlashtirilgan so'z yoki jumla. Badiiy asar matniga ko'proq qahramonlar nutqini individuallashtirish, davr yoki muhit koloritini aks ettirish kabi maqsadlarda kiritiladi.*"⁷ Yuqoridagi ta'rifda keltirilgan qahramon nutqini individullashtirish deganda varvarizmning qahramonga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni namoyon qilishi tushunilar ekan, tabiiyki, qahramon xarakterini ham ifodalash imkoniyatini anglash xato bo'lmaydi. Badiiy asarda personaj nutqida varvarizmlardan ko'p holatlarda so'zlovchining milliy mansubligini ko'rsatish uchun foydalaniladi, ammo bu qat'iy qoida emas, "*varvarizmlar o'zbek personajlari nutqida ham uchrab, bunday shaxslarning ma'naviy qiyofasini, o'z tiliga hurmatsizlarcha munosabatda bo'lishini, ba'zan esa saviyasi pastligini ko'rsatish maqsadida ishlatiladi.*"⁸

Erkin A'zamning qahramon xarakterini ochib berishda varvarizmlardan foydalanishi haqida Zafar Umurqulov quyidagicha fikr bildirgan: "*Erkin A'zam qahramonlarining xarakterini, ma'naviy axloqini ko'rsatish maqsadida varvarizmlarni takror qo'llaganidan voqif bo'lamiz.*"⁹

Misol sifatida "Suv yoqalab" kinoqissasidan O'rin Jaga va Bolta Mardon o'rtasidagi quloqboshida yuz bergan suhbatni keltiradi.

"–Hazillashmang, rais bobo! **Zakunni** buzyapsiz!

Zakunchi! Zakunni mendan himoya qilyapsanmi? Sen-a? Yo pirimey..."¹⁰

Erkin A'zam asarlarida personaj xarakterini ochib berish uchun uning tilidan varvarizmlar bilan bir qatorda vulgariizmlarni ham qo'llaydi. Vulgariizmlar personajning madaniyatsizligini, ma'naviy-axloqiy saviyasini ko'rsatib berish uchun xizmat qiladi.

Yozuvchi Erkin A'zamning asarlaridan maqsad – inson, uni qamrab olgan ijtimoiy voqelik va ko'ngil kechinmalarini talqin etish. Adib dastlab hikoyalarida, qissalarida qahramonlari ruhiyatida kechayotgan hissiyotlar tahlili orqali jamiyat qoidalari, tuzumning murakkab va chigal tomonlariga munosabat bildiradi. So'nggi yillarda yozilgan kinoqissalarida inson xakteri, ruhiyatini ochishda katta o'zgarishlar qildi, bu yangi yutuqlarga erishdi.

⁶ Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –T.: 2010. 40-b.

⁷Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T.: Akademiashr, 2013.

⁸ Umurqulov Z. Erkin A'zamning so'z qo'llash mahorati. –T.: Turon zamin ziyo, 2015. 24-b.

⁹Umurqulov Z. Erkin A'zam so'z qo'llash mahorati. "Turon zamin". 2015. 23-b.

¹⁰ A'zam E. Jannat o'zi qaydadir. -T.: Sharq, 2009. 66-b.

REFERENCES

1. A'zam E. Jannat o'zi qaydadir: hikoyalar, kinoqissalar, dramatik asar va publitsistik miniatyuralar. – T.: Sharq, 2007. 270 b.
2. Erkin A'zam badiiy olami. -T.: Turon zamin ziyo, 2014. 304 b.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018. 480 b.
4. Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T.: Akademnashr, 2013.
5. Umurqulov Z. Erkin A'zam so'z qo'llash mahorati. "Turon zamin". 2015.
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –T.: 2010.